

“O‘zbekistonda gender tengligi tahlili” hisoboti



[“O‘zbekistonda gender tengligi tahlili” hisoboti](#) Buyuk Britaniya hukumati moliyaviy ko‘magida Jahon banki tomonidan tayyorlandi. Ushbu hisobot mamlakatdagi gender tengligi bilan bog‘liq vaziyatni baholash uchun diagnostika vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu hisobot turli sohalardagi, jumladan, ayollarning ta‘lim, sog‘liqni saqlash, iqtisodiy faoliyatdan foydalanish imkoniyati, ularni zo‘ravonlikdan himoya qilish, nikoh va ajralishlar bilan bog‘liq vaziyat, shuningdek, ayollarning mamlakat ijtimoiy hayotidagi ishtiroki kabi vaziyatni tahlil qilish orqali O‘zbekistonda gender tengligi masalalarini o‘rganadi.

Bundan tashqari, hisobotda ijtimoiy va madaniy normalar va munosabatlarning ayollar huquqlari va ularning jamiyatda qanday qabul qilinishidagi o‘rni baholanadi. Ushbu hisobotda gender tengsizligini bartaraf etish va O‘zbekistonda ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta‘minlaydigan inklyuziv jamiyatni rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar berilgan.

Hisobotning asosiy xulosalari

- [“O‘zbekistonda gender tengligi tahlili” hisobotida](#) 2017-yildan buyon mamlakat rasmiylari tomonidan gender tengligiga erishish borasida erishilgan sezilarli yutuqlar e‘tirof etilgan. Xususan, teng qiymatdagi mehnat uchun ayollarga erkaklar bilan teng haq to‘lashni kafolatlovchi normalar qabul qilingan. Ayrim sohalarda ayollar mehnatidan foydalanishga qo‘yilgan cheklovlar ham bekor qilindi. 2022-yil oktabr oyida mehnat huquqlarini himoya qilish sohasidagi xalqaro standartlar va konvensiyalarga mos keladigan ushbu qoidalarni o‘z ichiga olgan yangi Mehnat kodeksi qabul qilindi.

Bundan tashqari, ayollarni oiladagi (maishiy) zo‘ravonlikdan himoya qiluvchi normalar qabul qilindi. 2023-yil aprel oyida O‘zbekistonning Jinoyat kodeksi va Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslariga oiladagi zo‘ravonlikka, jumladan, oilaviy munosabatlardagi

jismoniy, ruhiy va iqtisodiy zo'rvonlikka qarshi kurashishga qaratilgan o'zgartirishlar kiritildi.

Qonunchilikdagi Ushbu o'zgarishlarni hisobga olgan holda Jahon banki tomonidan har yili e'lon qilinadigan "[Ayollar, biznes va qonun](#)" hisobotida O'zbekiston 2024-yilda dunyodagi 190 ta davlat orasida gender tengligini ta'minlashda eng katta yutuqlarga erishgan yetakchi islohotchi-davlatlar beshtaligidan joy oldi.

- **Hisobotda O'zbekistonda ayollarning ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari sezilarli darajada yaxshilangani qayd etilgan.** Masalan, oliy ta'lim qamrovida sezilarli o'sish kuzatildi. Bunda 2017-2022-yillarda erkaklar o'rtasida oliy ta'lim olish imkoniyati 3 baravar – 29 foizgacha, ayollar o'rtasida to'rt baravar – 27,4 foizgacha oshdi.

Tibbiy yordamdan teng foydalanishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar so'nggi 30 yil ichida bolalar va onalar o'limining qisqarishiga olib keldi. Xususan, go'daklar o'limi 1990-yilda har 1000 nafar tirik tug'ilgan chaqaloqqa 34,6 o'limdan 2021-yilda 9,2 tagacha kamaydi.

- **Qonunchilik va inson kapitali rivojlanishidagi ijobiy o'zgarishlarga qaramay, O'zbekiston mehnat bozorida gender tengsizlik hali ham saqlanib qolmoqda.** 2021-yilda ayollarning ishchi kuchidagi ulushi erkaklarnikidan 28 foiz punktga (f.p.) past bo'lgan. Bu Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi bo'yicha (yuqori daromadli davlatlar bundan mustasno) o'rtacha ko'rsatkichdan, 19 foiz punktini tashkil etadi, yuqoriroq ko'rsatkich.

O'zbekistonda yosh xotin-qizlar o'rtasida ishsizlik darajasi 15,5 foizni tashkil etadi, bu yosh erkaklar o'rtasidagi 10 foizlik ko'rsatkichdan ko'proq. Ta'lim, ish yoki professional tayyorlovda bo'lmagan yosh ayollar ulushi 42% ni tashkil qiladi, erkaklarda esa bu ko'rsatkich 8,8% atrofida. Bundan tashqari, xizmat uchun haq to'lashda ham sezilarli darajada gender tengsizligi mavjud, ayollar erkaklarga qaraganda 34% kamroq maosh oladi. Bu 20 foiz bo'lgan global o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori.

- **Ayollar o'rtasida ish haqi va bandlikning pastligi O'zbekistonda iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda va kambag'allikni kuchaytirmoqda.** Agar xotin-qizlar iqtisodiy faoliyatda erkaklar bilan birdek ishtirok etsa, O'zbekistonda milliy daromad 29 foizga oshadi. Ayollarning erkaklar bilan bir xil darajada maosh olishini ta'minlash 700 mingdan ortiq odamni kambag'allikdan chiqarishga yordam beradi.

Biroq, ayollarga birinchi navbatda g'amxo'rlik va uy-ro'zg'or yumushlari uchun mas'ul sifatida qarashga undaydigan gender me'yorlari gender tengligi va jinsidan qat'i nazar, barcha fuqarolarga foyda keltiradigan iqtisodiy o'sish yo'lidagi taraqqiyotga to'sqinlik qilmoqda.

- **Hisobot tavsiyalari orasida O'zbekiston hukumati mamlakat o'z iqtisodiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishi uchun gender tengsizlikni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni davom ettirishi zarurligi qayd etilgan.** Bu ayollarning iqtisodiy faolligini cheklovchi ijtimoiy normalarni bartaraf etish, STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) yo'nalishlari va sog'liqni saqlash xizmatlari bo'yicha oliy ta'lim olish imkoniyatlaridagi tengsizlikni yanada kamaytirish, oilani rejalashtirish imkoniyatlarini takomillashtirish, ayollarni zo'rvonlikdan himoya qilish mexanizmlarini yanada

rivojlantirish, shuningdek, rahbarlik lavozimlarida ularning vakilligidagi tengsizlikni bartaraf etish kabi chora-tadbirlarini o'z ichiga oladi.

- **Mamlakat gender tengligidagi mavjud bo'shliqlarga qaramay, taraqqiyot uchun mustahkam poydevorga ega.** Bu jinsidan qat'i nazar, barcha fuqarolar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash uchun keng istiqbollarni ochadi, deyiladi Jahon banki hisobotida.